

КО`МАКЧИ СО`ЗЛАР HAQIDA BA`ZI MULOHAZALAR

Erbutayeva Sh.U

O`zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Xorijiy tillar va gumanitar fanlar fakulteti,

O`zbek tili va adabiyoti, ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi

o`qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7301579>

Annotatsiya. Maqolada o`zbek va dunyo tilshunosligida ko`makchilarning o`rganilishiga oid qarashlar, “oraliq uchinchi”, ko`makchilashish, metaforik ma`no ko`chishi.

Kalit so`zlar: Ko`makchi, ko`makchilashish hodisasi, so`z.

НЕКОТОРЫЕ ЗАМЕЧАНИЯ О ВСПОМОГАТЕЛЬНЫХ СЛОВАХ

Аннотация. В статье представлены взгляды на изучение вспомогательных слов в узбекском и мировом языкоznании, «промежуточной трети», вспомогательных средств, переноса метафорического значения.

Ключевые слова: Помощник, помогающее событие, слово.

SOME REMARKS ON AUXILIARY WORDS

Abstract. In the article, views on the study of auxiliaries in Uzbek and world linguistics, "intermediate third", auxiliaries, transfer of metaphorical meaning.

Key words: Helper, helping event, word.

KIRISH

Adabiy tilning boyib borishida tilimizning ichki imkoniyatlari hal qiluvchi rol o`ynaydi. Tildagi har qanday o`zgarish, avvalo, leksik qatlamda ko`zga tashlanadi va shu qatlamda shakllanib boradi. Ayniqsa, istiqlol yillarida boshqa sohalardagi islohotlar kabi o`zbek tili leksikografiyasida ham qator islohotlar bo`ldi. O`zbek tilining izohli lug`ati yangidan nashr etildi va bu lug`at o`z tarkibiga 80 mingdan ortiq so`zni kiritdi. Buning natijasida qator tadqiqotlar yaratildi. Leksik qatlamni o`rganish ko`lami yanada ortdi. Bu tadqiqotlarda tilni leksik-semantik, lingvostatistik va leksikografik usullarda tadqiq qilishga alohida e`tibor qaratildi.

TADQIQOT METODI VA NATIJASI

Yordamchi so`zlar, ayniqsa, ko`makchi so`zlarni tahlilga tortar ekanmiz, biz avvalo, “so`z” atamasiga diqqatimizni qaratamiz. Bir guruh olimlar ko`makchilarning so`z ekanini tan olmasligini, lekin bu xato fikr ekanligini asoslab beradi. “Yordamchi so`zlar” deb ishlatishimizni, lekin ularning so`z sifatida tan olmasligimizni; ko`makchi so`zlar ham mustaqil so`z turkumlaridan kelib chiqqanligini rad etmasdan, ularning so`z ekanligini rad etishimizni aytib o`tadilar. Lekin ko`makchilarning so`z ekaniga shubha qiladilar. Vaholanki, ot-ko`makchilar, sifat-ko`makchilar, ravish-ko`makchilar, fe'l-ko`makchilar deyilgan atama har qanday ko`makchini qaysi so`z turkumlariga taalluqli ekanini qayd etishdir. Bu holatni professor A.B.Pardayev quyidagicha izohlaydi: “Nafaqat ko`makchilarni, balki boshqa yordamchi so`zlarni ham so`z deb hisoblamaslik “so`z” atamasini “leksema” tushunchasi bilan almashtirishdan kelib chiqqan...”. Shu o`rinda lug`atlarga murojaat qilamiz. Azim Hojiyev “leksema” va “so`z”ni, leksema - lug`aviy ma`no anglatuvchi unsur, so`z - leksemaning shakl va mazmun bilan voqelangan ko`rinishi”, -ekanligini izohlaydi. O.S.Axmanova esa “Словарь лингвистических терминов” lug`atida “slovo” (Glossa) Ingliz tili. So`z, fr. mot, ispan palabra. 1. Fikrlash predmeti bilan haqiqatning berilgan “bo`lagi”ning umumlashtirilgan aksi sifatida to`g`ridan - to`g`ri o`zaro bog`liqlikka qodir bo`lgan va bunga yo`naltirilgan (ko`rsatuvchi)

jumlaning cheklovchi komponenti. Natijada, so‘z ma’lum bir leksik yoki moddiy xususiyatlarga ega bo‘ladi.

MUHOKAMA

2. (erkin shakl).

1. qiymatdan farqli o‘larоq potentsial minimal jumlalar faqat sintaktik ravishda ko‘rib chiqiladi. A) morfologik tuzilishi va o‘zgarishi bo‘yicha farqlang: so‘zlar asosiy (oddiy, antiderivativlar, ildiz), hosilalar, ishlab chiqaruvchi, murakkab, o‘ta murakkab (murakkab), birikma qisqartirilgan... f) tomonidan adabiy tilga munosabat”. Bundan ko‘rinib turibdiki, Axmanova so‘zga 2 xil ta’rif bergan:

1.Oxirgi chegara (fikrni ifodalash);2. Erkin (sintaktik planda qaraladigan minimum). “Leksema” ga quyidagicha ta’rif beradi: Lexema (glossema) ing. leksema.

1. So‘z tarkibiy element sifatida so‘z turi sifatida til (so‘z a’zosidan farqli o‘larоq, ya’ni og‘zaki birlik, nutq jarayonida ajralib turish);

2. (monema). Semantik mazmunini uning sintaktik qurilishidan ham, uning tarkibiy elementlari semantikasidan ham olish mumkin bo‘lmagan har qanday birikma birligi. O‘zbek tilshunos olimlarimiz ham bu borada atroflicha izlanishlar olib borgan. “Darhaqiqat, bu sharhlarda so‘zning leksema deb atalishi, leksemaning esa lug‘aviy ma’no anglatuvchi unsur hisoblanishi yordamchi so‘zlarni so‘z deb atashga raxna soluvchi fikrlardir. Chunki yordamchi so‘zlarning lingvistik tabiatni ularni lug‘aviy birlik sifatida qarashga imkon bermaydi”. M: *O‘ng qanotda saf tortgan oldi ochiq oshxona, ombor, somonxona-yu sayixxonalar tarafdan tosh terilgan yo‘lka bo‘ylab oltmis besh yoshlardagi devqomat, vajohatli bir odam kelmoqda.*(Aralashqo ‘rg‘on, 4-bet). Misolimizda keltirilgan *qanot* ko‘makchi vazifasini bajarsa-da, hali to‘laligicha yordamchilashib ulgurmagan. Bu leksema qush va hasharotlarda uchish vazifasini bajaruvchi organ. Biz keltirgan misolda *tomon* sof ko‘makchisiga sinonim tarzda qo‘llanilgan. So‘zning mohiyatini belgilashga doir fikrlar Z.Isoqovda quyidagicha keltirilgan: “Ma’lumki, tildagi biror bir hodisaning zohiriylar belgilari tavsifi ma’lum bir bosqichga ko‘tarilgach, shu hodisalarning bir-biriga munosabati, bu munosabatlarning o‘ziga xosligini ochish jarayoniga zamin yaratadi. Qolaversa, lingvistik sath tushunchasining paydo bo‘lishi va sathlararo darajaviy munosabatga e’tiborning kuchayishi, har bir quiyi sath birligining funksiyasi o‘zidan bir daraja yuqori sath birligining tarkibida namoyon bo‘lishining tan olinishi so‘zning mohiyatini belgilashga ham qulay imkoniyat yaratadi. Demak, ma’lum bir leksik birlik o‘zidan yuqori sathdagina o‘z leksik va grammatik belgisini to‘laligicha ochib beradi. Qanot leksemasining izohi keltirildi, bu izoh leksik sath uchungina, matn yoki ma’lum bir gap tarkibida biz uni[qanot] tahlilga tortar ekanmiz, *qanot* ko‘makchi vazifasini bajarayotganligining guvohi bo‘lamiz. *O‘ng qanotda(tomon) + saf tortmoq=* ko‘makchili tobe bog‘lanish, boshqaruv yo‘li bilan hosil qilingan. Professor Azamat Pardayev so‘z bilan bog‘liq munozara va bahslarning ko‘pligi, bugungi tilshunosligimizda so‘z, so‘z turkumi, yordamchi so‘zlar kabi masalalarda bir to‘xtamga kelish kerakligi muhim ekanligini aytib o‘tadilar. Bu orqali olim “...so‘z muhim lingvistik birlik, yordamchi so‘zlarning so‘z turkumi paradigmaidagi o‘rnii mustahkam”, - ekanligini ta’kidlaydi.

XULOSA

Bundan kelib chiqadiki, ko‘makchining leksik ma’nosи o‘zi birikib kelayotgan mustaqil ma’noli so‘zning leksik ma’nosiga bog‘liq ekan. Turdi Rustamov mustaqil va yordamchi so‘zlarda leksik va grammatik ma’no mavjudligi, biroq bu ularning mustaqil ma’noli so‘zlardagi kabi leksik va grammatik ma’no hosil qiladi degan fikr keltirib chiqarmasligini aytadilar. Dunyo

tilshunosligida “oraliq uchinchi” turkumlariga oid qarashlar turlicha bo‘lib, biz tilning turli xususiyatlarini inobatga olgan holda ko‘makchilashish jarayonini matn bilan bog‘laymiz.

REFERENCES

1. С. Ахманова Словарь лингвистических терминов издательство;Советская энциклопедия,Москва-1966.
2. Ҳожиев А.Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. ЎзМЭ.Тошкент.2002.164-бет.
3. Пардаев А. Ўзбек тили ёрдамчи сўзларнинг лингвистик табиатига доир айrim мулоҳазалар // Қарақалпақ мәмлекетлик университетиниң хабаршыси; Нукус, 2011. –№ 1-2(10-11).
4. Исоқов З. Сўз туркумлари системасида ёрдамчи сўзлар, // Ўзбек тили ва адабиёти , 2002. - № 2.
5. Пардаев А., Қурбонов С. Сўз таърифи хусусида // «Интернаука»: научный журнал. Часть 2. – Москва, 2017. - № 11(15).